



№ 5 (85),
2020-yil may

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, axborot gazetasi

IJODIY PARVOZ

**9-may –
Xotira va Qadrlash kuni**



JIGARLARIM

Xurshid DAVRON,
O'zbekiston Xalq shoiri

**Vatan uchun jonin bergan jigarlarim,
Hurlik uchun qonin bergan jigarlarim,
Xoinlarni itday qirgan jigarlarim,
Unutmaydi nomingizni ona Vatan.**

**Validangiz: «Farzandimdan roziman» — der,
Rizoligin aytar sizga shu ona yer,
Ey, Boburjon, ey, Ulug'bek, ey Alisher,
Nomingizni unutmaydi ona Vatan.**

**Ortingizda o'zbek degan millat qoldi,
O'zbekiston degan ulug' davlat qoldi,
Sizdan meros jasoratu shiddat qoldi,
Sizni aslo unutmaydi ona Vatan.**

**Siz tufayli uyim tinchdur, baxtim omon,
Siz tufayli kunlar kelar dorilomon,
Ey G'afurjon, ey Mahmudjon, ey Elomon,
Unutmaydi, unutmaydi sizni Vatan.**

**Sadoqatni jo aylab siz dilingizga,
Belbog' boylab shijoatdan belingizga,
Ko'kragingiz qalqon bo'lidi elingizga,
Sizni abad unutmaydi ona Vatan**

MUHAMMAD YUSUF IJODIDA BADIY OBRAZ TALQINI

Adabiyot borliqni badiiy obrazlarda ifodalaydi. Badiiy obrazni yaratish yo'li, ifoda vositalari, usullari, uslublari bilan adabiyot san'at turiga aylangan. San'at asari obrazdan boshlanadi. Obrazning hayotiyligi, badiiyat darajasi san'atshunoslik tadqiqotlariga mavzudir. Shoir yaratgan badiiy obraz jonliligi, mustahkam zamini, o'ziga xos sifatlari bilan hayratga solishi uning ijodkorini san'atkori deyishga asos beradi. Muhammad Yusuf ana shunday san'atkori edi. U yaratgan Yalpiz, Rayhon, Qizg'aldoq, Do'lana, Kapalak, Jayron, Chumoli, Tulpor singari tugal shaklu shamoyili, xususiyati, tabiat, fe'l-atvoriga ega bo'lgan obrazlar insondek muloqotga kirib, sirdosh do'st, dardkash dugonaga aylanishi she'riyat atalmish yuksak san'atga oshino etadi.

Erka kiyikning sadoqatli ining bo'lib yelka tutishi, Tulporning og'angdek bag'rige olishi, Lolaqizg'aldoq singillik mehrini berishi, Kapalak sirdoshingga aylanib, birga kuyishini butun jismu jonning bilan his qilganingda qalbing junbushga keladi, shu ulkan olamning yaxlit bo'lagiga aylanib ketasan:

Muhammad Yusufning poetik obrazlarini aks ettirgan bir qarashda yengil, o'ynoqidek tuyuladigan misralari qa'rida bir olam dardli kechinmalar, shirin azob-u achchiq malham, o'tli hissiyot va titroqli hayajon mujassam. Ularni talqin etishda shoir badiiy adabiyotning fanda "Ilmi sanoye" deb yuritiluvchi ma'naviy san'atlaridan keng foydalanadi. Ma'naviy san'atlarning tashbeh (Kaftdan zirapchangni olmay sevaman), mubolag'a (Oy mening yelkamga o'tirib olgan, Oftob g'avg'o solar yurgan yo'limda), tashxis (Mening og'am - oqterak, Mening onam - majnuntol), sinekdoxa (Gulim, mehr ko'zda degani yolg'on) kabi turli shakkllari obrazlar hayotiyligiga xizmat qiladi. Ma'naviy san'atlarning buningdek jozibasi oldida bu dunyoning rost-u yolg'oni, baxti-yu baxtsizligi kun va tunning almashishidek oddiy tuyuladi. Bu dunyoda go'zallikdan boshqasi o'tkinchi ekanligiga ishonasan. Olloh bandasini mo'jizalar uchun yaratganiga imon keltirasan.

Shoir yaratgan badiiy obrazlar nihoyatda rang-barang. Bular orasida o'z ohanrabosi bilan tortib turuvchi va eng yorqini bu – Vatan obrazidir.

*Kel yig'laymiz birgalashib yantoqlarga,
Sahrolarda qurimagan buloqlarga.
Ikkalamiz yaralganmiz qyinoqlarga.
Erka kiyik, maylimi bir erkalasam...*

*O'zbekiston, jonim to'shay soyangga,
Rimni alishmasman bedapoyangga..*

Bu so'zlarni tinglaganda bolaligimiz

o'tgan keng bedapoyalar, cheksiz dalalar, adirliklar yodga tushadi. Dunyoning ne-ne go'zalliklari maftun etmasin, har qanday inson ertami-kechmi o'zligiga, o'zining sokin kengliklari, cheksiz yaylov-bedazorlariga talpinadi. Ehtimol bu ham odamiylikning bir belgisidir. Shoir shu tariqa dunyo yaralibdiki, odamzodning o'zi bilan kelib, o'zi bilan ketadigan eng muqaddas tuyg'ularni badiiy obrazda ifoda etadi. Badiiy obraz ma'naviy-estetik ehtiyojni qondirish bilan bir qatorda o'zining ulkan tarbiyaviy ahamiyatini va ijtimoiy tafakkurga ta'sirini ko'rsatadi. Shu o'rinda V.M.Jirmunskiyning quyidagi so'zlari yodga tushadi "Badiiy obraz – voqelikning passiv umumlashmasi emas, balki o'ziga xos hissiy-ruhiy quvvati bilan adabiyotni jamiyatning faol kuchiga aylantruvchi vositadir".

Muhammad Yusuf o'z intervyularidan birida ustozi Abdulla Oripov haqida gapirib, "Alisher Navoiydan keyin roppa rosa 500 yil o'tib, 1941 yilda o'zbek xalqining peshonasiga yana bitta shoir bitgan" degan tashbejni aytgan edi. Beixtiyor o'ylab qolasan, bu so'zlarni aytgan shoirning o'zi ham Ollohning bir in'omi emasmidi?! Uzoq yillik mutelik davrini boshdan o'tkazgan xalqimiz mustaqillik degan ne'matni hali idrok etib ulgurmagan bir paytda Muhammad Yusuf nomi yarq etib paydo bo'lgani bejiz emas. Zero, o'tgan asrning 80-yillari

oxirlarida o'zining ko'p yillik tekis-silliq o'zanidan chiqib ketgan jamiyat, alg'ov-dalg'ovli ijtimoiy muhit o'ziga xos bir tilmochga ehtiyoj sezardi. Bu tilmoch siyosatdan uzoqda yurguvchi oddiy xalq uchun juda zarur bo'lib, anglamaganni anglatish, ilg'amaganni ilg'atishi vojib edi. Muhammad Yusuf ana shunday tilmoch bo'lib, erk, hurriyat, vatan sevgisi, yurt qadrini sodda, jaydari, bepardoz va o'ta samimiyatila tushuntirib berdi. Hali o'zimiz anglamagan qalb kechinmalarimizni, yuragimiz tubidagi tuyg'ularimizni she'rga solib, taqdim etdi.

Uzoq yillar o'zligini unutib, o'zgalar uchun ishslashga ko'nikkan, va nihoyat o'zga xalqqa qulluq qilishdan ozod etilgan millat birdaniga erkinlik ma'nosini anglashi oson emas edi. Istiqlolning mazmun mohiyati, hurriyat qadrini his qilish va eng muhimi erkparvar yurt otasi tevaragida birlashish uchun aynan Muhammad Yusufning o'zi va so'zi kerak bo'ldi.

*"Dunyoga boq, qaddi sendek kim bor yana,
Dovrug'i ham dardi sendek kim bor yana.
Xalq bo'lishga haddi sendek kim bor yana,
Moziymi yod etay desang — xalq bo'l, elim."*

U yaratgan Vatan obrazi mutloq yangiligi, asilligi, oddiy kishilarga yaqinligi bilan e'tibor qaratdi. Ko'p yillar mavhum bo'lgan Vatan tushunchasi



№ 5 (85),
2020-yil may

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, axborot gazetasi

IJODIY PARVOZ

**9-may –
Xotira va Qadrlash kuni**



JIGARLARIM

Xurshid DAVRON,
O'zbekiston Xalq shoiri

**Vatan uchun jonin bergan jigarlarim,
Hurlik uchun qonin bergan jigarlarim,
Xoinlarni itday qirgan jigarlarim,
Unutmaydi nomingizni ona Vatan.**

**Validangiz: «Farzandimdan roziman» — der,
Rizoligin aytar sizga shu ona yer,
Ey, Boburjon, ey, Ulug'bek, ey Alisher,
Nomingizni unutmaydi ona Vatan.**

**Ortingizda o'zbek degan millat qoldi,
O'zbekiston degan ulug' davlat qoldi,
Sizdan meros jasoratu shiddat qoldi,
Sizni aslo unutmaydi ona Vatan.**

**Siz tufayli uyim tinchdur, baxtim omon,
Siz tufayli kunlar kelar dorilomon,
Ey G'afurjon, ey Mahmudjon, ey Elomon,
Unutmaydi, unutmaydi sizni Vatan.**

**Sadoqatni jo aylab siz dilingizga,
Belbog' boylab shijoatdan belingizga,
Ko'kragingiz qalqon bo'lidi elingizga,
Sizni abad unutmaydi ona Vatan**

MUHAMMAD YUSUF IJODIDA BADIY OBRAZ TALQINI

Adabiyot borliqni badiiy obrazlarda ifodalaydi. Badiiy obrazni yaratish yo'li, ifoda vositalari, usullari, uslublari bilan adabiyot san'at turiga aylangan. San'at asari obrazdan boshlanadi. Obrazning hayotiyligi, badiiyat darajasi san'atshunoslik tadqiqotlariga mavzudir. Shoir yaratgan badiiy obraz jonliligi, mustahkam zamini, o'ziga xos sifatlari bilan hayratga solishi uning ijodkorini san'atkori deyishga asos beradi. Muhammad Yusuf ana shunday san'atkori edi. U yaratgan Yalpiz, Rayhon, Qizg'aldoq, Do'lana, Kapalak, Jayron, Chumoli, Tulpor singari tugal shaklu shamoyili, xususiyati, tabiat, fe'l-atvoriga ega bo'lgan obrazlar insondek muloqotga kirib, sirdosh do'st, dardkash dugonaga aylanishi she'riyat atalmish yuksak san'atga oshino etadi.

Erka kiyikning sadoqatli ining bo'lib yelka tutishi, Tulporning og'angdek bag'rige olishi, Lolaqizg'aldoq singillik mehrini berishi, Kapalak sirdoshingga aylanib, birga kuyishini butun jismu jonning bilan his qilganingda qalbing junbushga keladi, shu ulkan olamning yaxlit bo'lagiga aylanib ketasan:

Muhammad Yusufning poetik obrazlarini aks ettirgan bir qarashda yengil, o'ynoqidek tuyuladigan misralari qa'rida bir olam dardli kechinmalar, shirin azob-u achchiq malham, o'tli hissiyot va titroqli hayajon mujassam. Ularni talqin etishda shoir badiiy adabiyotning fanda "Ilmi sanoye" deb yuritiluvchi ma'naviy san'atlaridan keng foydalanadi. Ma'naviy san'atlarning tashbeh (Kaftdan zirapchangni olmay sevaman), mubolag'a (Oy mening yelkamga o'tirib olgan, Oftob g'avg'o solar yurgan yo'limda), tashxis (Mening og'am - oqterak, Mening onam - majnuntol), sinekdoxa (Gulim, mehr ko'zda degani yolg'on) kabi turli shakkllari obrazlar hayotiyligiga xizmat qiladi. Ma'naviy san'atlarning buningdek jozibasi oldida bu dunyoning rost-u yolg'oni, baxti-yu baxtsizligi kun va tunning almashishidek oddiy tuyuladi. Bu dunyoda go'zallikdan boshqasi o'tkinchi ekanligiga ishonasan. Olloh bandasini mo'jizalar uchun yaratganiga imon keltirasan.

Shoir yaratgan badiiy obrazlar nihoyatda rang-barang. Bular orasida o'z ohanrabosi bilan tortib turuvchi va eng yorqini bu – Vatan obrazidir.

*Kel yig'laymiz birgalashib yantoqlarga,
Sahrolarda qurimagan buloqlarga.
Ikkalamiz yaralganmiz qyinoqlarga.
Erka kiyik, maylimi bir erkalasam...*

*O'zbekiston, jonim to'shay soyangga,
Rimni alishmasman bedapoyangga..*

Bu so'zlarni tinglaganda bolaligimiz

o'tgan keng bedapoyalar, cheksiz dalalar, adirliklar yodga tushadi. Dunyoning ne-ne go'zalliklari maftun etmasin, har qanday inson ertami-kechmi o'zligiga, o'zining sokin kengliklari, cheksiz yaylov-bedazorlariga talpinadi. Ehtimol bu ham odamiylikning bir belgisidir. Shoir shu tariqa dunyo yaralibdiki, odamzodning o'zi bilan kelib, o'zi bilan ketadigan eng muqaddas tuyg'ularni badiiy obrazda ifoda etadi. Badiiy obraz ma'naviy-estetik ehtiyojni qondirish bilan bir qatorda o'zining ulkan tarbiyaviy ahamiyatini va ijtimoiy tafakkurga ta'sirini ko'rsatadi. Shu o'rinda V.M.Jirmunskiyning quyidagi so'zlari yodga tushadi "Badiiy obraz – voqelikning passiv umumlashmasi emas, balki o'ziga xos hissiy-ruhiy quvvati bilan adabiyotni jamiyatning faol kuchiga aylantruvchi vositadir".

Muhammad Yusuf o'z intervyularidan birida ustozi Abdulla Oripov haqida gapirib, "Alisher Navoiydan keyin roppa rosa 500 yil o'tib, 1941 yilda o'zbek xalqining peshonasiga yana bitta shoir bitgan" degan tashbejni aytgan edi. Beixtiyor o'ylab qolasan, bu so'zlarni aytgan shoirning o'zi ham Ollohning bir in'omi emasmidi?! Uzoq yillik mutelik davrini boshdan o'tkazgan xalqimiz mustaqillik degan ne'matni hali idrok etib ulgurmagan bir paytda Muhammad Yusuf nomi yarq etib paydo bo'lgani bejiz emas. Zero, o'tgan asrning 80-yillari

oxirlarida o'zining ko'p yillik tekis-silliq o'zanidan chiqib ketgan jamiyat, alg'ov-dalg'ovli ijtimoiy muhit o'ziga xos bir tilmochga ehtiyoj sezardi. Bu tilmoch siyosatdan uzoqda yurguvchi oddiy xalq uchun juda zarur bo'lib, anglamaganni anglatish, ilg'amaganni ilg'atishi vojib edi. Muhammad Yusuf ana shunday tilmoch bo'lib, erk, hurriyat, vatan sevgisi, yurt qadrini sodda, jaydari, bepardoz va o'ta samimiyatila tushuntirib berdi. Hali o'zimiz anglamagan qalb kechinmalarimizni, yuragimiz tubidagi tuyg'ularimizni she'rga solib, taqdim etdi.

Uzoq yillar o'zligini unutib, o'zgalar uchun ishslashga ko'nikkan, va nihoyat o'zga xalqqa qulluq qilishdan ozod etilgan millat birdaniga erkinlik ma'nosini anglashi oson emas edi. Istiqlolning mazmun mohiyati, hurriyat qadrini his qilish va eng muhimi erkparvar yurt otasi tevaragida birlashish uchun aynan Muhammad Yusufning o'zi va so'zi kerak bo'ldi.

*"Dunyoga boq, qaddi sendek kim bor yana,
Dovrug'i ham dardi sendek kim bor yana.
Xalq bo'lishga haddi sendek kim bor yana,
Moziymi yod etay desang — xalq bo'l, elim."*

U yaratgan Vatan obrazi mutloq yangiligi, asilligi, oddiy kishilarga yaqinligi bilan e'tibor qaratdi. Ko'p yillar mavhum bo'lgan Vatan tushunchasi

oldidagi haybatli devor olib tashlandi. Oddiy, samimi, xalqona yaratilgan Vatan obrazi ushbu mavzudagi zerikarli, balandparvoz mazmunini tamoman o'zgartirib yubordi. Vatan mavzusidagi she'rlarni majburan yodlash va yodlatishga ehtiyoj qolmadni. Bir paytlar ming bir hadik bilan "O'zbegim"ni o'qib, taskin topgan ko'ngillar bir-biridan samimi, sodda va shunisi bilan ko'ngilga yaqin misralarga o'z to'ridan joy berdi.

Bu obraz Yulduz Usmonova, Oxunjon Madaliyev, Muhriddin Xoliqov, Sevara Nazarxon qo'shiqlarida parvoz qilib, barchaning tilidan, dilidan o'rinni oldi, o'zimiznikiga aylandi. Zero, o'zimiznikni bo'lgan yurtda o'z tilimiz, erkimiz, xalqimiz degan tushunchalarni to'laqonli idrok etish uchun aynan o'zimizning qo'shiqlarimiz zarur edi.

Garchi ana shunday qo'shiqlar qalamidan tug'ilgan bo'lsa-da, Muhammad Yusuf qo'shiqchi shoir degan tavsimi yoqtirmagan. Qo'shiq uchun atayin she'r yozmagan ham. Uning she'rlari o'z qanoti bilan qog'ozga tushgan, o'z musiqasi bilan bitilgan va shu bois hofizlar orasida qo'lma-qo'l bo'lib ketgan. Zero bu o'sha damlarda san'atkorlarimizning ham bo'g'zidagi qo'shig'i, aytmoqchi bo'lgan so'zi, kuylamoqchi bo'lgan izhori edi. "Xalq bo'l elim" deyilganda davra guvv etib bejiz qalqib ketgani yo'q, "Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston" deya kuylanganda etimiz jimirlagani, yoki "Ulug'imsan Vatanim" deyilganida beixtiyor jo'r bo'lishimiz ham tasodif emas edi.

Muhammad Yusuf talqinidagi Vatan obrazi shunchalar suyuklikni, "qo'yningdagi iftixor"-u "bo'yningdagi tumor"ga aylanadi, shu tariqa suyumlikni, "iddaolar qilmay seva"san! U shunchalar yaqinki, "o'g'lim deb, bosh egadi".

*Sen - shoxlari osmonlarga
Tegib turgan chinorim,
Ota desam,
O'g'lim deb,
Bosh egib turgan chinorim,*

*Qo'ynimdagi iftixorim,
Bo'ynimdagi tumorim,
O'zing mening ulug'lardan
Ulug'imsan, Vatanim!*

Odam nimani qo'ynida olib yurishi mumkin? O'ta qimmatbaho sanagan, yo'qotib qo'yishdan qo'rqi, ehtiyotlagan narsasini. Birovlarning ko'zi tegishidan pana qilgan suyukli suratni. U "bo'ynidagi tumor" ya'ni baloyu-qazolardan jonni asraydi. Buningdek tashbeh Vatanni sevish, uni ardoqlash borasidagi yuzlab ma'ruzalar va kitoblardan ming chandon ko'proq ta'sir qilishi aniq. Aristotel yozgan katarsis hodisasi ya'ni taassurot ortidan poklanish, ruhlanish holati yuz beradi. Shu tariqa Vatan sevgisi quloqqa emas, yurakka mixlanadi. Badiiy obraz taassurotidan tug'ilgan el-yurtga, ona tuproqqa bo'lgan ehtirom, mehrmuhabbat va ulkan sadoqat o'ziga xos ibrat matabiga aylanadi.

*Vatan-
Yuragimning
Olampanohi,
Bu dunyo
Bukri bir
Jiydangning shoxi!
Ko'zim yoshi bilan
Sug'orib gohi,
Ko'ksimda o'stirgan
Gulday sevaman.*

Muhammad Yusuf she'rlaridagi yuksak badiiyat shoirning xalq ijodi, jahon she'riyati, qolaversa dunyo san'ati va madaniyati borasida ulkan bilimi, teran tushunchasining ifodasidir. Har qanday san'atkorning bilim va dunyoqarashi nechog'li keng bo'lsa, obrazlarida shunchalik xalqchilik, samimiylig ustuvor bo'ladi, jimjimadorlikdan uzoqlashadi, soddalik kasb etadi. Oddiy tilda aytganda, Muhammad Yusuf she'rlarining zuvalasi pishiqligi ham mana shundan.

*Shoir yozadi:
Qanday yigit edim-a,
Qanday yigit edim-a.*

Shoir yozadi:
Qanday yigit edim-a,
Qanday yigit edim-a.

shahardagi bino musodara qilinib, "Turon" truppasiga tekinga foydalanish uchun beriladi.

O'tgan asrning o'ttizinchiligi yillarda shu yerda Kino arteli tashkil etilgan. "Nasriddin Buxoroda", "Tohir va Zuhra", "Alisher Navoiy" "Sinchalak" kabi kinofilmlar shu yerda suratga olingan. Bino 1966 yildagi zilzila oqibatida qattiq shikastlangan. Navoiy nomidagi ko'chani kengaytirilishi munosabati bilan buzib tashlangan.

Ma'lumki Oktabr to'ntarishi jamiyat hayotining siyosi, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida keskin burilishlarga sabab bo'ldi. Toshkent shahrining o'zidagi ko'p sonli havaskorlik truppalar qatorida "Turon" truppassi, o'zining qishlik (Eski shahardagi Mahsido'zlik mahallasida) va yozlik "Rohat bog'chasi" binosiga ega bo'lganligi truppa a'zolarini muntazam faoliyatlarini davom ettirib, to'planib yangi asar ustida ishlashga, tayyor spektakllarni namoyish qilish imkonini berardi.

1918 yilning 18 iyunida Eski

*Onam tuqqan
Muhammadjonday
Yigit edim-a...*

Beixtiyor xalq og'zaki ijodidagi mana bu satrlar yodga tushadi:

*Oy Barchinim, yor- yor
Gul Barchinim, yor- yor
Ultontozga tekkancha
O'l Barchinim, yor- yor.*

Xalq og'zaki ijodi adabiyotning bosh asosi bo'lib, asarlar mag'zini to'q, mohiyatini pishiq qilishi ulug' yozuvchi va shoirlar ijodida o'z tasdig'ini topgan. Shoirning xalq qo'shiqlari yo'lida yozilgan ko'plab she'larida badiiy obraz xalqona talqinda ro'yi-rost aks etadi, dilingdan va tilingdan joy oladi:

*Bir bayotim bor edi,
Bir bayotim yo'q edi.
Bir qanotim bor edi,
Bir qanotim yo'q edi.
Bo'lding bir qanotim-a,
Fotimajon, Fotima.*

So'z san'atkori Muhammad Yusufning obraz yaratishdagi mahoratini kuzatarkanmiz, uning niroyatda rang-barangligi diqqatni tortadi: "ko'zimning yoshini keladi ichgim, tilimni chaynagim kelar gohida", "quyoshga qo'shilib botib ketgim keladi". Beixtiyor badiiy obrazning murakkab dunyosini his qilasan, uning ijodkori ulkan olamning alohida bir go'zal qismi, o'zgacha hilqati ekaniga ishonasan. Ana shunda Abdulla Oripov tashbehi fikrlaringga oydinlik kiritadi, "- Muhammad bir sayroqi qush edi, u bizning bog'imizga kelib sayradi - sayradi va yana uchib ketdi".

Muhammad Yusuf - ulkan bir jarayon, alohida olam.

*Mening kimligimni
Bilmaydi hech kim.
Men bir g'alatiman.
Men alohida... .*

Ehtimol mana shu alohidaligi

uchun ham uni barcha birdek sevadi. Keksa momolar-u nuroni yotaxonlar, chapani erkaklar-u tortinchoq juvonlar, bo'z yigitlar-u uyatchan qizlar, kitob tutganlar-u tutmaganlar barcha birdek ardoqlaydi! Uning betakror she'rlaridan o'zligini izlaydi, sirdoshini ko'radi, dardkashini topadi. Zero Muhammad Yusuf "ko'hna tol beshikni bag'riga bosgan" onalarmi, "otga sirini aytguvchi" chapani yigitni, "qishloqdag'i qizlarning bari qarashgan" bo'z o'g'lonni, "kuzda qolgan bobodehqonni" she'rdek mo'jizaga oshno qilib ketdi, badiiyat zavqni totib ko'rmoqlik baxtini ularsha oldi!

*O'lsa o'zi o'lar,
So'zi o'lmaydi,
Hamisha barhayot nasl shoirlar.
Haqiqiy shoirning qabri bo'lmaydi,
Yurakka ko'milar asl shoirlar.*

Bugungi kunda Muhammad Yusuf ijodini o'rganish hamda keng targ'ib etish O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti zimmasiga yuklatilgani ko'ngilga shukuh bag'ishlaydi. Zero, mamlakatimiz madaniyati va san'atining ertangi kunini yaratuvchi yoshlar tahsil oladigan mazkur ilm dargohida bu ulkan merosning o'rganilishi nafaqat ilmiybadiiy, balki ulkan ijtimoiy ahamiyatga ham egadir. Muhammad Yusuf badiiy dunyosiga chuqurroq nazar tashlash, uning obraz yaratishdagi betakror mahoratini o'rganib chiqish yosh ijodkorlarni adabiyot va san'atdagi samimiyat, tabiiy tuyg'ular, sof kechinmalar jozibasidan bahramand etadi, beg'uborlikka undaydi, ko'ngilni tozalaydi. Bu hislar bo'lajak san'atkorlarning dastlabki qadamlaridan jismiga jo bo'lishi, ertangi san'atimiz jozibasini oshirib, betakror, samimi yiqofasini yanada takomillashtirishga xizmat qilmog'i muqarrar.

**Oltinoy TOJIBOYEVA,
san'atshunoslik fanlari doktori**

MANNON UYG'UR

Toshkentning Zanjirli mahallasidagi shaharning boobro' boylaridan hisoblangan Majid oqsqoqolning 1987 yilda tug'ilgan uchinchi o'g'liga Mannon deya ism qo'yildi. Bolakay yetti yoshga to'Iganida onasi Ibdotat buvi o'g'lining qo'lidan yetaklab to'g'ridan-to'g'ri madrasaga emas, Toshkentda 1904 yilda ilk bora ziyoli Azimiy tomonidan ochilgan, bepul "Usuli jadid" matabiga olib boradi.

Usuli jadid matabidagi o'qishning to'rtinchi yillarida maktabdosh o'rtoqlari bilan Konkaga osilishib, "Gorodga" (yangi shahar O'rda suvidan kun chiqar tomondag'i chiqadigan ruslar yashaydigan qismi) chiqadigan bo'lishdi. Ayniqsa, "Xiva" teatrida ko'rsatiladigan sinematograf tomoshalari Mannonda o'zgacha taassurot qoldiradi. Avvaliga "dorbozlar" o'ynlariga taqlid qiladigan bo'lsa, endi sinematografdan aks ettirilgan o'ynlarga taqlidan o'zi to'qigan voqealarni ijro eta boshlaydi.

Yangi matabda o'qib mukammal xat-savodini chiqargan Mannonni Shayhontohurdagi Eshonquli dodxoh

kunlarimiz sertashvish bo'lardi, - deb ma'lumot beradi truppa ishtirokchisi Ali Ardonov, - uyma-uy yurib, tanishbilishlarimiznikidan tomoshaga kerakli kiyim-kechak, rekvizitlarni yig'ib kelar edik".

Teatrda repertuar tanqisligidan habardor bo'lgan davlat idoralari buni bartaraf etish uchun "Zamonaviy pyesalar" yaratish uchun tanlov e'lon qiladi. Lekin hali dramaturg degan tushunchaning o'zi amaliyotga kiritilmagan, pyesa qanday yozilishi to'g'risida yetarli bilimning o'zi ham yo'qligi sababli shoir CHo'lpon teatrda adabiy emakdosh qilib biriktiriladi.

O'z navbatida Uyg'ur "Xo'r-xo'r", "Na qonur, na qondir", "Tursunali va Ballibodi", "Yomon qardosh" kabi asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilib sahnalashtiradi.

1921 yilda "O'lka namuna o'zbek teatri" tashkil topdi. Bu Turkiston jumhuriyatining birinchi markaziy davlat truppassi edi. Yangi truppaning asosiy ijodiy kuchlari "Karl Marks" teatrning yetakchi artistlari tashkil qildi, boshqa

truppaldan ham talantli yoshlar tanlab olindi.

Buxoro halq komissari Fayzulla Xo'jayev taklifiga binoan, 1921 yilda Mannon Uyg'ur Buxoroga safarbar etiladi. U Buxoroga kelishi bilan shahar maktablari oralab kam sonli havaskorlik to'garaklari, maktab ta'limining adabiyot darslarida qatnashadi. Teatr san'ati to'g'risida qiziqarli suhabatlar o'tqazadi. O'zi ijro etgan rollardan ayrim sahnalarini ko'rsatadi.

Nihoyat, bir necha oy o'tkazilgan ko'rik-tanlovlardan xosilasi o'laroq Hikmat Latipov, Lutfulla Nazrullayev, Sa'dixon Tabibullayev va Nabi G'aniyev singari qobiliyatli yoshlarni tanlab olib, teatr ishiga jalb qilindi. Bu teatr 1922 yilda sahnalashtirilgan "Tuhmatchilar jazosi" spektakli bilan ochildi. Shundan so'ng Behbudiyning "Padarkush", "Yo'lbars Olim", "Turkiston tabibi" asarlari sahnalashtiriladi.

Turkiston hukumati 1922 yilning 20 iyunida Maorif xalq komissarligi ta'minotida bo'lgan Eski shaharda yagona o'zbek teatrini tiklash va uni Maorif xalq komissarligi ta'minotida qoldirish to'g'risida maxsus qaror qabul qilindi. Shunga ko'ra, "Turon" truppassi o'rniga "Namuna" deb nomlangan truppassi yana tiklandi va o'z ishini davom ettirdi. Uyg'ur Buxorodan qaytib, 1922 yilda teatrda qizg'in ish boshlab yuboradi.

1923 yilning kuz oylarida Uyg'urni ilg'or maorif xizmatchisi sifatida Moskvada ochilgan "Xalq xo'jalik yutuqlari ko'rgazmasi"ga yuboriladi. Ko'rgazmani tomosha qilib yurgan kezlarining e'tiborini bir e'lon o'ziga jalb qiladi. Unda yozilishicha, Moskvada aktyorlik mahorati maktabi ochilganligi, qiziquvchilar "Aktyorlik maktabi"ga taklif qilingan edi. Bu ish ayni Mannon ko'nglidagi orzu edi. Darhol sayrusayohatni yig'ishtirib, shu kursning rejissyorlik bo'limiga kirib, o'qishni boshlab yuboradi.

Ma'lumki, 1920 yilda amirlik tugatilib, Buxoro xalq Ruspiblikasi e'lon qilinganidan so'ng Buxoro xalq komissari Fayzulla Xo'jayev tashabbusi bilan Moskvada Buxoro xalq maorif uyi ochiladi. Mannon Uyg'ur ayni shu Maorif xalq uyiga Moskvada turkistonlik o'zbeklarni teatr sohasi bo'yicha o'qitish uchun bir studiya tashkil etish to'g'risidagi taklif bilan murojaat qiladi. Boshqa yurtlardan teatr sohasi bo'yicha o'nlab talabalar o'qitilayotgan bir vaqtda, Turkistondan bir o'zi, bu ham bo'lsa o'z tashabbusi bilan bu yerga kelib bilim orttirayotgani, lekin bir o'zi bilan O'zbekistonda teatr ishini butunlay o'nglab bo'imasligini tushuntirishga harakat qiladi.

1923 yil kuzida RSFSR maorif xalq komissari A.V.Lunacharskiy qabuliga kirib, ahvolni tushuntiradi. Fayzulla Xo'jayevning bevosita say-harakati bilan Moskvadagi Spiridonova ko'chasida joylashgan "Xalq maorif uyi"da yuz o'quvchiga mo'ljallangan "Teatr studiyasi" tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Studiyada o'qitish ishlari 1924 yilning kuz oylaridan boshlangan bo'lib, bu ishga ham M.Uyg'ur bosh-qosh bo'ladi. O'quvchilarni tanlash uchun Farg'ona muzofotiga Ishoq qori Karimov, Buxoroga Fatxulla Umarov yuboriladi.

Toshkentdan Abror Hidoyatov, Yetim Bobojonov, Muzaffar Muhammedov, 14 yoshlik Sora Eshonto'rayeva, Tursunoy Saidazimova, 13 yoshlardagi Zamira Hidoyatova ham uydagilaridan yashirinchalik paroji yopingan holda Moskvaga yetib boradi. Andijondan Ishoq qori Karimov, Qo'qondan Hojisiddiq Islomov, Buxorodan Lutfulla Nazrullayev, Sa'dixon Tabibullayev, Sharif Qayumov, Hikmat Latipov, Nabi G'aniyev, G'ulom Isomov, Ne'mat Rahmatov, Xojoqul Rahmatillayevlar Moskvaga borishga rozi bo'ladilar.

O'zbek yoshlarini o'qitish uchun Vaxtangov studiyasining binosi tanlab olinadi. Birinchi dars boshlangan chog'da studiya ustaxonasida 24 kishi o'tirardi. Studiyachilarining moddiy sharoitlari ta'minoti bilan doimiy shug'ullanish uchun o'sha davrda ma'rifatchi va maorif ishlari o'zining tashkilotchiligi bilan diqqatga tushgan Shokirjon Rahimi - studiya direktori, adabiy emakdosh va tarjimon - Abdulhamid CHo'lpon, Badiiy rahbar - Mannon Uyg'ur tayinlanadilar.

Moskva studiyasidagi mashg'ulotlar ikki shaklda; nazariy va amaliy shaklda olib boriladi. O'qishing birinchi yilda asosan rus tilini o'rganish, "Aktyorlik mahorati" bo'yicha mashq va etyudlar ustida ish olib borilgan bo'lsa, spektakllar ustida ishlash 1926 yildan boshlanadi.

Vaxtangov rejissura maktabi qoidalari aktyorlardan tashqi va ichki ifoda vositalari yuksak darajadagi qobiliyatni talab qilishi, ijodiy tafakkurga erkinlik berish, musiqa, sahnaviy marom va muhitni his qilish, so'zlarni aniq talaffuz qilish, fikrlar ravon, ta'sirli chiqishi uchun har bir so'zning ostida ma'lum aniq bir harakat bo'lishi, aktyor ijrosi zavqli, ehtirosli bo'lishi, sahnadagi har bir katta-kichik rol ta'sirli, ifodali, ma'lum bir shaklga solingan bo'lishi talab qilingan.

Shunday qilib o'sha 1926 yil ilk bora "Malikai Turandot" spektakli ustida ish boshlanadi.

Asarni o'zbek tiliga CHo'lpon tarjima qiladi.

Navbatdagi spektakl Gogolning "Revizor" spektakli bo'ldi. Bu asarni ham CHo'lpon tarjima qiladi.

Mazkur pyesa ustida ishlash jarayonida ijodiy mashg'ulotlar hamda ularni amaliyotda qo'llash nazarda tutilgan edi.

Studiyachilar 1926 yilning yozgi ta'til vaqtida O'zbekistonning o'sha vaqtdagi poytaxti Samarqand shahriga kelib o'zlar o'tgan yillar davomida erishgan yutuqlarining hosili sifatida, mazkur ikki spektakl hamda "Yana uylanaman" pantomima spektakllarini namoyish etadilar.

Bir so'z bilan aytganda, 1927 yil O'zbek Milliy teatri ijodiy parvozining bir necha pog'ona yuqoriga ko'tarilish yili sifatida tarix sahifalarida muhranib qoladi.

O'zbek drama truppasining o'ttizinchi yillargacha bo'lgan eng katta yutuqlaridan biri bu Xurshidning "Alisher Navoiy" dostoni asosida yozilgan "Farhod va Shirin" musiqali dramasi bo'ldi.

O'zbek teatrining o'ziga xos taraqqiyot yo'lini, ijodiy yo'nalishini, milliy shaklini aniq belgilab olishda ko'pchilik tomoshabinlarning fikr-mulohazalari,

talab-ehtiyojlari, istaklarini o'rganish va bilish sahna ahli, xususan, Mannon Uyg'ur uchun zarur edi. Shu bois tomoshabinlarni teatrga ko'plab jalb qilish, ularning ehtiyojlarini sinchiklab o'rganish maqsadida teatrning o'zida bir qator ishlarni amalga oshiradilar.

Teatr olamida katta-shov-shuvga sabab bo'lgan, Shekspirning "Hamlet" pyesasi ustidagi tayyorgarlik ishlari 1933 yilda boshlanadi.

Xuddi shu yili Hamza nomidagi drama teatriga "Akademik teatr" faxriy unvoni berildi. Ma'suma Qoriyeva, Mariya Kuznetsova, Sora Eshonto'rayeva, Yetim Bobojonov, Abror Hidoyatov, Mirshohid Miroqilovga "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist", Mannon Majidov Uyg'urga "O'zbekiston xalq artisti" unvoni beriladi.

Men, - deb yozadi Mannon Uyg'ur o'z esdaliklarida, - Moskvada MXAT (Moskva Badiiy akademik teatri) ajoyib spektakl "Gamlet"ni ko'rgach, uni o'zimizda ham qo'yamiz, Gamlet rolini Abror Hidoyatovga keldim. Biroq men Shekspir asarining ijrochilaridan yuksak madaniyat va katta mahorat talab qilishini tushunardim, shuning uchun biz "Gamlet"ni faqat o'n yildan so'nggina sahnalashtirishga kirishdik".

Shubha yo'qli, Uyg'ur Shekspir asarini sahnalashtirishda milliy dramaturgiyamizning kelgusi rivojlanishini ham nazarda tutgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, "Hamlet" premyerasi o'tgandan keyin Uyg'ur "Biz endi dramaturlarga ham talabni katta qo'yishni o'rgandik. O'zbek tomoshabinini jahon dramaturgiyasi durdonasi bilan bahramand etishni yuksak farzdebbilamiz, ayni vaqtida ular Shekspir dahosini qadrlaydi, uning beqiyos mahoratini e'zozlaydi", - degan edi.

Buyuk Shekspirning "Hamlet" asarini CHo'lpon tarjima qilgan. U Moskvada davolanih qaytganidan so'ng teatrda Mannon Uyg'ur yonidan nari ketmay, tarjimani takomillashtirish ustida tinmay ishladi. Pyesadagi har bir monologni tarjima qilar ekan, uning har bir satrini bir necha variantda yozib kelar va Og'a boshliq ijrochilar bilan muhokama qilinardi. Eng jarangdor, tomoshabinga tez yotib boradigan so'zlargina olib qolinardi.

CHO'lpon ham o'z navbatida chaynalgan, jarangsiz, yuki yengil, hissiz so'zlardan qochar, aktyorlarga takror-takror o'qitib ko'rар, Abror Hidoyatovga ma'qul bo'lgan matnni oqqa ko'chirardi. Har kuni mana shunday og'ir mehnat qilingani uchun asarning mohiyat-maqsadi artistlarning vujudiga singib ketdi. Matn artistlarning o'z mulki bo'lib qoldi.

1935 yilning 11 fevral kuni O'zbek teatri tarixida yangi sahifa ochildi. Shu kuni Hamza nomidagi O'zbek akademik drama teatrida Shekspirning "Hamlet" spektakli namoyish etildi. (Jamoatchilik ko'rigining ertasigayoq hali e'lonlar chiqmasdan turib "Hamlet"ning dastlabki o'n spektakliga chiptalar sotib bo'lingan edi). Shu munosabat bilan "Pravda Vostoka" gazetasi o'zining 1935 yil 21 fevral sonida quyidagilarni yozgan edi:

"Tomoshabinlar spektaklning ko'pchilik sahnalarini gulduros qarsaklar bilan qarshi oladilar. Hamlet (Abror Hidoyatov) bilan postanovkachi Uyg'ur

va rejissyor Bobo Xo'jayevlar qayta-qayta sahnaga chaqirilaverdi. Tomosha zali har kuni paranji yopingan kampirlar, salsa o'ragan oppoq soqollni mo'ysafidlar, yoshlar, o'zbek ziyolilari bilan liq to'la. Teatr eshigi oldida "Hamlet"ga tushmoqchi bo'lganlarning son-sanog'i yo'q. Ular orasida qiyomiga yetkazib qo'yilgan spektaklni yana bir bor ko'rish niyatida yurganlar ham oz emas. Teatr foyesida "Hamlet"ning yuksak did bilan nashr etilgan o'zbekcha tarjimasi (Abdulhamid CHo'lpon tarjimasi) qo'l-qiga tegmay sotilib, antrakt paytlari shu yerning o'zidayoq havas bilan o'qiladi".

Qariyb 24 yillik umrini, bilimi va sog'lig'ini teatr san'ati rivojiga bag'ishlagan Mannon Uyg'ur 1938 yilda ana shu tuzum oqibatida tazyiqqa uchradi. CHo'lpon, A.Qodiriy, Fitrat, Xurshid, G'ulom Zafariy, Ziyo Saidlarning "hamfikri" sifatida, o'zi tashkil etgan teatrdan haydab solishadi.

To'qqiz oy, taqa-taq eshlarni qoqib adolat talabida bo'ldi. Idorama -idora adolat tilab sarson bo'ldi. Tirikchilik tashvishida, Moskvadan adolat qidirdi. Topilmadi. Ammo san'at san'atkorni qidirib topdi. Hamza nomidagi o'zbek akademik drama teatri Mannon Uyg'ursiz huvillab qoldi. Moskvadan yordamga yuborilgan "og'alarimiz" haqiqiy "Og'a"ning o'rnini to'ldira olmadidi. Teatr jamoasi faqat Uyg'urni qo'msadi. Uyg'urni so'radi. Uyg'urni talab qildi.

1941 yilda Uyg'ur yana o'zining buyukligiga yarasha bo'yldi. Shekspirning "Otello"si na faqat o'zbek tomoshabinlari hatto moskvalik shekspirshunoslarining ham qalbini titratdi. Morozovdek taniqli shekspirshunos olim, Uyg'urning rejissyorlik, Abror Hidoyatovning aktyorlik mahoratiga tan berdi. Bu haqda "Zvezda Vostoka" jurnalida "Hamlet" va "Otello" kabi Shekspirning murakkab pyesalari ustidagi Hamza teatrining ijodiy ishlari, o'zbek teatr san'atining eng gullab-yashnaganligidan dalolat beradi, - deb yozgan edi".

M.Uyg'ur 1941-1945 yillarda "Alisher Navoiy" spektaklini sahnalashtiradi. Ammo har ehtimolga qarshi Moskvadan chaqirilgan Ladiginni ham rejissyor sifatida ro'yxatga kiritib qo'yadi. Shu yillari H.Olimjonning "Muqanna", M. Shayxzodanining "Jaloliddin", Muqimiy nomidagi musiqali teatrda S. Abdullaning "Muqimiy" spektakllarini sahnalashtirish orqali o'zining tom ma'nodagi o'zbek milliy teatrining "Og'a"si ekanligini ijodiy ishlari bilan isbotlaydi.

U 1950 yildan boshlab Toshkent teatr va rassomlik institutida "Rejissura" va "Aktyorlik mahorati" fanlaridan dars berar ekan, jonajon teatrining ijodiy hayoti bilan muntazam munosabatda bo'ladi.

Biroq, teatrning tashkilotchilik, ijodiy, yosh shogirdlarni tayyorlash ishlari, yaqin safdoschlardan bevaqt ajralish, o'zi tashkil etgan teatridan haydalishi rejissyor asablarini egovlab, ruhiyati va sog'lig'iga jiddiy putur yetkazadi.

Mannon Uyg'ur og'ir betoblikdan so'ng, 1955 yil, 16 oktabr kuni 58 yoshida Toshkentda olamdan o'tdi.

“JANNATGA YO‘L” HAQIDA

Ziyolilar atamasini hayotimizda ko‘p eshitganmiz ammo ba‘zi insonlar bu so‘zni asl mohiyatini anglamaydilar. Ular aslida qanday insonlar? Ziyolilar – nur tarqatuvchilar, ular o‘zlarining xatti-harakatlari, faoliyatlar bilan jamiyatni nurlantiruvchi, ma’naviyijitmoiy barqarorlikni ta’minlovchilar hisoblanadi. Shu sababli, yurtimizda kitob bilan oshno bo‘lgan, kitobni suygan, kitob yozgan, kitobni muqaddas bilib uin ko‘zqorachig‘idek asraganlarni ziysi deb atashadi.

Kitob insonni yerdan ko‘kka ko‘taruvchi, uning ma’naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuch hisoblanadi. U insoniyatning tarixiy xotirasi, barchamizni o‘z ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy zaminimizni mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko‘rsatib borishga qodir mash’ala hisoblanadi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari «Kitob – beminnat ustoz, bilim va ma’naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai», deya ta’kidlagan bo‘lsa, sohibqiron bobomiz Amir Temur «Kitob – barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idroknning, ilmu donishning asosidir. Hayotni o‘rgatuvchi murabbiydir», deya uqtirgan.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan mamlakatimizda kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini yaxshilash to‘g‘risida ko‘plab amaliy ishlardan qilinmoqda. Jumladan, «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida»

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori qabul qilindi. Qarorga ko‘ra kitob mahsulotlari bo‘yicha davlat buyurtmasining asosiy yo‘nalishlarini shakllantirish, adabiy-badiiy, o‘quv-uslubiy, ilmiy-nazariy, ilmiy-ommabop va ko‘rgazmali adapbiyotlarni chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, ixtisoslashtirilgan kitob do‘konlari faoliyatini rivojlantirish belgilandi. Mamlakatimizda har bir insonning kitob mutolaasiga bo‘lgan qiziqishini oshirish va unda mutolaa madaniyatini shakllantirish muhim masalalardan hisoblanadi.

O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekiston qahramoni Abdulla Oripovning “Jannatga yo‘l” asari meni hayotimda o‘chmaz iz qoldirdi desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Men ushbu asar haqida O‘zbekiston Respublikasi san‘at arbobi, “El-yurt hurmati” ordeni sohibi Isoq To‘rayevdan qiziq bir ma’lumotni eshitdim. Ushbu asar spektakl ko‘rinishida Qashqadaryo Mulla To‘ychi Toshmuhammedov nomidagi musiqali drama teatrda Abdurahmon Abdunazarov tomonidan dramatik yo‘lda sahnalashtirilganda, spektaklni tomosha qilish uchun shaxsan O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashrif buyurgan ekanlar. Islom Karimov “ushbu spektaklni hamma oila a’zolari bilan ko‘rishi kerak ekan, mana shu spektaklda ko‘tarilgan eng inson uchun muqaddas tuyg‘ulardan biri, bu otana oldidagi farzandning burchi shu spektaklda juda bir yorqin oshib berilgan ekan” deb ta’kidlagan ekanlar.

“Jannatga yo‘l” deb nomlangan spektaklni zamirida insoniyatni hayotda

qilishi mumkin bo‘lgan hamma xatolari, barcha to‘g‘ri ishlari ko‘rsatilgan. Ushbu spektaklda rejissyor tomoshabinga tarozibon roli orqali yetkazmoqchi bo‘lganlari quyidagilardan iborat: insonni bu olamda qilib ketgan ezgu amallari bilan yomonliklari va yaxshiliklari tarozida o‘lchanishi, qanday savob ishlardan qildi va qanday nomaqbul ishlardan umrini o‘tkazdi. Rahmatli Abdulla Oripov ham ushbu spektaklni Islom Karimov bilan birga ko‘rgan ekanlar. Spektakl tugagach insonlar uchun mana shunday noyob va qimmatli asarni yozganligi uchun Birinchi Prezidentimiz Abdulla Oripovni bag‘rlariga bosib minnatdorchilik bildirganlar.

Ushbu noyob asar kundalik hayot voqealarini aks ettiradi. Ushbu asarda ko‘tarilgan mavzular hanuzgacha dolzarb, shu tufayli asarni o‘qiydigan kitobxonni va spektaklni tomosha qiladigan tomoshabinni chuqr o‘yga to‘ldiradi.

Abdulla Oripov «Jannatga yo‘l» asarida insonparvarlik g‘oyalarini ilgari surdi. Odamlarga yaxshilik qilish, faqirning og‘irini yengillatish, adolatsizlikka qarshi fidoylarcha kurashish natijasida qo‘lga kiritilgan savoblargina Tarozibon talablariga javob berishi mumkin. Lekin savob tasodify ishning natijasi bo‘imasligi kerak, u vijdoniy vazifaning amalga oshuvি tarzida doimiy ro‘y bergen taqdirdagina o‘z mohiyatini ifoda eta oladi. Shoир talqinicha, yer yuzida iymonsizlik, insofsizlik, beburdlik va vijdonsizlikdan yomonroq narsa yo‘q. Zero, barcha qabohatlarni urchituvchi kuch shularda yashirin.

Asarda chin do‘stlik haqida ham yaxshi fikrlar keltirilgan. Donolarning aytishicha, uch guruh kishilar bilan do‘stlik yo‘lini tutish maqsadga muvofiqdir. Birinchisi, ilm ahli bo‘lib, ular o‘z hayotlarini ilmu odob bilan o‘tkazgan va hayotning barcha achchiq-chuchugini tortgan bo‘ladilar. Ikkinchisi, baxtiyor, tabiatli saodatmand kishilar, ular o‘z do‘stlarining ayblarini odamlardan yashiradilar va hech qachon oshkor qilmaydilar. Xilvatda do‘stdan sodir bo‘lgan xatolarni yuzlariga aytib beradilar va ulardan hech bir nasihatlarini ayamaydilar. Uchinchisi, beg‘araz va betama’ kishilar bo‘lib, ularning do‘stliklari haqiqiy, biror foyda topish evaziga qurilmagan bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripovning “Jannatga yo‘l” asari kitobxon uchun juda katta ilm va ma’rifat manbaidir. O‘ylaymanki, xattiharakatlari sarhisobini qilib borish uchun har bir odamning qalbida qilayotgan ishlardan o‘lchovchi tarozibon bo‘lishi kerak. Bugungi notinch va murakkab zamonda yurtimizdagini tinchlik va barqarorlikni saqlash, xalq faravonligini ta’minalash juda katta mehnat va mas’uliyatni talab qiladi. Buning uchun har bir yurt farzandi o‘zini shu yurt taqdiriga daxldor ekanligini qalbdan xis qilgan holda o‘zining jamiyatdagi vazifalarini to‘la ado qilmoqliklari lozim. Zero, Vatanga xizmat shu yurt farzandiman degan har bir o‘g‘il - qiz uchun eng oliy saodatdir.

**Kamoliddin UMAROV,
O‘zDSMI “Madaniyatshunoslik”
mutaxassisligi 1-bosqich magistrant**

YOSHLIK KUYCHISI

filmini suratga oladi. Ijodkorning filmlari muvaffaqiyatlari chiqadi.

Elyor Eshmuhammedovga haqiqiy muvaffaqiyatni 1966 yilda ekranga chiqqan “Nafosat” filmi olib keldi. “Nafosat” filmi yoshlik va bu davrda yoshlar qalbida kechadigan tuyg‘ular haqida. Melodrama janridagi ushbu film uch novelladan iborat bo‘lib, novellalar mavzu va g‘oya jihatidan bir-biriga bog‘liq. Filmda uch yosh: Sanjar, Lena va Ma’muralarning kechmishlari va yoshlik tuyg‘ulari aks ettirilgan. Bolalik bilan xayrashib, yoshlik davriga endigina qadam qo‘yan yoshlar qalbida sevgi degan tuyg‘u tug‘iladi. Lekin bu tuyg‘u rivoj topmay, aksincha, film qahramonlari qalbida quvonch va qayg‘u hosil qiladi. Sanjar, Lena, Ma’mura qalblarida nima kechayotganliklarini tushunmaydilar. Sevgi tuyg‘usini qanday tuyg‘u ekanligini anglay olishmaydi. Qahramonlarning bu tuyg‘usi ya’ni sevgisi shunchalik nozikki, bu muhabbat hech bir qalbga ozor bermaydi. Rejissyor yoshlar qalbida kechadigan tuyg‘ularni shunchalik nozik ifodalab bera olganki, buni ko‘rgan, his qilgan har bir tomoshabin to‘lqinlanib ketadi. Filmning yana bir yutug‘i - rejissyor filmning har bir personajiga mos xarakter topa olganidadir.

Film Elyor Eshmuhammedovga rejissyorlik ishi uchun ko‘plab mukofotlarni keltirdi. Jumladan, film Lokarnoda o‘tkazilgan XX xalqaro kinofestivalda maxsus sovringa, Frank Furt-Mayneda o‘tkazilgan kinofestivalda rejissyorlik ishi uchun Kumush sovringa sazovor deb topildi. Shuningdek, “Nafosat” filmi YUNESKO Fondiga kiritilgan o‘zbek filmlari qatoridan joy oldi.

Elyor Eshmuhammedov 1965 yildan 1989 yilgacha “O‘zbekfilm” kinostudiyasidagi faoliyati mobaynida qator filmlar suratga oldi. 1969 yilda suratga olingan “Sevishganlar” filmi Minskda o‘tkazilgan IV Ittifoq kinofestivalida maxsus sovringa loyiq deb topildi. Elyor Eshmuhammedov bu ikki muvaffaqiyatlari filmidan so‘ng barakali ijod qiladi. Qator yillarda “Velosiped poygasi” (1970, xujjatli), “Uchrashuv va Ayriliqlar” (1973), “Qushlar bizning umidimiz” (1976), “Toshkentda anhor bor” (1977, xujjatli), “Eh, bizning yillar!” (1980), “Dahoning yoshligi” (1982), “Alvido yashil yoz...” (1985), “Shok” (1989 ikki seriyali), “Navro‘z” (1997, xujjatli, qisqa metrajli), “Vorislar” (2001), “Yo‘ldagi farishta” (2003), “Sevishganlar 2” (2004), “Vorislar 2” (2005), “Kelinchak”

(2006), “Bolali yolg‘iz ayol” (2007), “Sen haqingda” (2007), “Nurafshonim mening” (2007), “Uchinchi osmon” (2007), “Asrdan ko‘proq” (2009), “Katya: Harbiy tarix” (2009), “MUR” (2011), “Mix” (2014) nomli filmlar suratga oladi. Rejissyor ko‘p yillik izlanishlari natijasida 1969 yilda O‘zbekiston SSR da xizmat ko‘rsatgan artist, 1983 yilda O‘zbekiston SSR xalq artisti unvonlariga sazovor bo‘lgan. Bugungi kunda rejissyor Rossiya Federatsiyasida xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi.

Shoir she’rlarida nimani kuylasa, xalq shuni tinglaydi, Xalq shoirning tuyg‘ularini o‘ziniki qilib oladi, qalbiga, xotirasiga muhraydi. Rejissyor Elyor Eshmuhammedov o‘zining filmlarida ko‘proq yoshlik va undagi go‘zal tuyg‘ularni aks ettirishga va tomoshabinlar qalbidan joy olishga intildi. U she’rlarda emas, filmlarida yoshlikni kuyladi, odamlar qalbiga joyladi. Bu bilan esa rejissorning o‘zi ham tomoshabinlar xotirasida, qalbida yoshlik kuychisi bo‘lib umrbod esda qoladi.

Shahnoza TUYUNOVA

Muassis:
O‘zbekiston davlat san‘at va
madaniyat instituti

Bosh muharrir:

Tahrir hay’ati:
Go‘zal XOLIQULOVA
Ma’reufion YULDASHEV
O‘tkur ISLAMOV
Antonino KOSHELEVA
Rashid USNATOV
Jumagul NISHONOVA
Mas‘ul kotib:
Alimurod TOJIYEV
Nafisa RAIMQULOVA

Tahririyat manzili: 100025 Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Yalang‘och mavzesi, 127 A uy.
Telefon: (0-371) 230-28-13.
www.dsni.uz; nashriyot@dsni.uz

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo‘limida tayyorlandi.
O‘lchami – A3, hajmi 2 bosma taboq.
Nusxasi – 500 dona. Narxi kelishilgan narxda.
Chop etishga 30.03.2020 yilda topshirildi.

Sahifalovchi:
Shahriyor IBRAGIMOV

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo‘limida tayyorlandi.
O‘lchami – A3, hajmi 2 bosma taboq.
Nusxasi – 500 dona. Narxi kelishilgan narxda.
Chop etishga 30.03.2020 yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqами bilan 2012-yil 19-dekabrda ro‘yxatga olingan.

oldidagi haybatli devor olib tashlandi. Oddiy, samimi, xalqona yaratilgan Vatan obrazi ushbu mavzudagi zerikarli, balandparvoz mazmunini tamoman o'zgartirib yubordi. Vatan mavzusidagi she'rlarni majburan yodlash va yodlatishga ehtiyoj qolmadni. Bir paytlar ming bir hadik bilan "O'zbegim"ni o'qib, taskin topgan ko'ngillar bir-biridan samimi, sodda va shunisi bilan ko'ngilga yaqin misralarga o'z to'ridan joy berdi.

Bu obraz Yulduz Usmonova, Oxunjon Madaliyev, Muhriddin Xoliqov, Sevara Nazarxon qo'shiqlarida parvoz qilib, barchaning tilidan, dilidan o'rinni oldi, o'zimiznikiga aylandi. Zero, o'zimiznikni bo'lgan yurtda o'z tilimiz, erkimiz, xalqimiz degan tushunchalarni to'laqonli idrok etish uchun aynan o'zimizning qo'shiqlarimiz zarur edi.

Garchi ana shunday qo'shiqlar qalamidan tug'ilgan bo'lsa-da, Muhammad Yusuf qo'shiqchi shoir degan tavsimi yoqtirmagan. Qo'shiq uchun atayin she'r yozmagan ham. Uning she'rlari o'z qanoti bilan qog'ozga tushgan, o'z musiqasi bilan bitilgan va shu bois hofizlar orasida qo'lma-qo'l bo'lib ketgan. Zero bu o'sha damlarda san'atkorlarimizning ham bo'g'zidagi qo'shig'i, aytmoqchi bo'lgan so'zi, kuylamoqchi bo'lgan izhori edi. "Xalq bo'l elim" deyilganda davra guvv etib bejiz qalqib ketgani yo'q, "Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston" deya kuylanganda etimiz jimirlagani, yoki "Ulug'imsan Vatanim" deyilganida beixtiyor jo'r bo'lishimiz ham tasodif emas edi.

Muhammad Yusuf talqinidagi Vatan obrazi shunchalar suyuklikni, "qo'yningdagi iftixor"-u "bo'yningdagi tumor"ga aylanadi, shu tariqa suyumlikni, "iddaolar qilmay seva"san! U shunchalar yaqinki, "o'g'lim deb, bosh egadi".

*Sen - shoxlari osmonlarga
Tegib turgan chinorim,
Ota desam,
O'g'lim deb,
Bosh egib turgan chinorim,*

*Qo'ynimdagi iftixorim,
Bo'ynimdagi tumorim,
O'zing mening ulug'lardan
Ulug'imsan, Vatanim!*

Odam nimani qo'ynida olib yurishi mumkin? O'ta qimmatbaho sanagan, yo'qotib qo'yishdan qo'rqi, ehtiyotlagan narsasini. Birovlarning ko'zi tegishidan pana qilgan suyukli suratni. U "bo'ynidagi tumor" ya'ni baloyu-qazolardan jonni asraydi. Buningdek tashbeh Vatanni sevish, uni ardoqlash borasidagi yuzlab ma'ruzalar va kitoblardan ming chandon ko'proq ta'sir qilishi aniq. Aristotel yozgan katarsis hodisasi ya'ni taassurot ortidan poklanish, ruhlanish holati yuz beradi. Shu tariqa Vatan sevgisi quloqqa emas, yurakka mixlanadi. Badiiy obraz taassurotidan tug'ilgan el-yurtga, ona tuproqqa bo'lgan ehtirom, mehrmuhabbat va ulkan sadoqat o'ziga xos ibrat matabiga aylanadi.

*Vatan-
Yuragimning
Olampanohi,
Bu dunyo
Bukri bir
Jiydangning shoxi!
Ko'zim yoshi bilan
Sug'orib gohi,
Ko'ksimda o'stirgan
Gulday sevaman.*

Muhammad Yusuf she'rlaridagi yuksak badiiyat shoirning xalq ijodi, jahon she'riyati, qolaversa dunyo san'ati va madaniyati borasida ulkan bilimi, teran tushunchasining ifodasidir. Har qanday san'atkorning bilim va dunyoqarashi nechog'li keng bo'lsa, obrazlarida shunchalik xalqchilik, samimiylig ustuvor bo'ladi, jimjimadorlikdan uzoqlashadi, soddalik kasb etadi. Oddiy tilda aytganda, Muhammad Yusuf she'rlarining zuvalasi pishiqligi ham mana shundan.

*Shoir yozadi:
Qanday yigit edim-a,
Qanday yigit edim-a.*

Shoir yozadi:
Qanday yigit edim-a,
Qanday yigit edim-a.

shahardagi bino musodara qilinib, "Turon" truppasiga tekinga foydalanish uchun beriladi.

O'tgan asrning o'ttizinchiligi yillarda shu yerda Kino arteli tashkil etilgan. "Nasriddin Buxoroda", "Tohir va Zuhra", "Alisher Navoiy" "Sinchalak" kabi kinofilmlar shu yerda suratga olingan. Bino 1966 yildagi zilzila oqibatida qattiq shikastlangan. Navoiy nomidagi ko'chani kengaytirilishi munosabati bilan buzib tashlangan.

Ma'lumki Oktabr to'ntarishi jamiyat hayotining siyosi, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida keskin burilishlarga sabab bo'ldi. Toshkent shahrining o'zidagi ko'p sonli havaskorlik truppalar qatorida "Turon" truppassi, o'zining qishlik (Eski shahardagi Mahsido'zlik mahallasida) va yozlik "Rohat bog'chasi" binosiga ega bo'lganligi truppa a'zolarini muntazam faoliyatlarini davom ettirib, to'planib yangi asar ustida ishlashga, tayyor spektakllarni namoyish qilish imkonini berardi.

1918 yilning 18 iyunida Eski

*Onam tuqqan
Muhammadjonday
Yigit edim-a...*

Beixtiyor xalq og'zaki ijodidagi mana bu satrlar yodga tushadi:

*Oy Barchinim, yor- yor
Gul Barchinim, yor- yor
Ultontozga tekkancha
O'l Barchinim, yor- yor.*

Xalq og'zaki ijodi adabiyotning bosh asosi bo'lib, asarlar mag'zini to'q, mohiyatini pishiq qilishi ulug' yozuvchi va shoirlar ijodida o'z tasdig'ini topgan. Shoirning xalq qo'shiqlari yo'lida yozilgan ko'plab she'larida badiiy obraz xalqona talqinda ro'yi-rost aks etadi, dilingdan va tilingdan joy oladi:

*Bir bayotim bor edi,
Bir bayotim yo'q edi.
Bir qanotim bor edi,
Bir qanotim yo'q edi.
Bo'lding bir qanotim-a,
Fotimajon, Fotima.*

So'z san'atkori Muhammad Yusufning obraz yaratishdagi mahoratini kuzatarkanmiz, uning niroyatda rang-barangligi diqqatni tortadi: "ko'zimning yoshini keladi ichgim, tilimni chaynagim kelar gohida", "quyoshga qo'shilib botib ketgim keladi". Beixtiyor badiiy obrazning murakkab dunyosini his qilasan, uning ijodkori ulkan olamning alohida bir go'zal qismi, o'zgacha hilqati ekaniga ishonasan. Ana shunda Abdulla Oripov tashbehi fikrlaringga oydinlik kiritadi, "- Muhammad bir sayroqi qush edi, u bizning bog'imizga kelib sayradi - sayradi va yana uchib ketdi".

Muhammad Yusuf - ulkan bir jarayon, alohida olam.

*Mening kimligimni
Bilmaydi hech kim.
Men bir g'alatiman.
Men alohida... .*

Ehtimol mana shu alohidaligi

uchun ham uni barcha birdek sevadi. Keksa momolar-u nuroni yotaxonlar, chapani erkaklar-u tortinchoq juvonlar, bo'z yigitlar-u uyatchan qizlar, kitob tutganlar-u tutmaganlar barcha birdek ardoqlaydi! Uning betakror she'rlaridan o'zligini izlaydi, sirdoshini ko'radi, dardkashini topadi. Zero Muhammad Yusuf "ko'hna tol beshikni bag'riga bosgan" onalarmi, "otga sirini aytguvchi" chapani yigitni, "qishloqdag'i qizlarning bari qarashgan" bo'z o'g'lonni, "kuzda qolgan bobodehqonni" she'rdek mo'jizaga oshno qilib ketdi, badiiyat zavqni totib ko'rmoqlik baxtini ularsha oldi!

*O'lsa o'zi o'lar,
So'zi o'lmaydi,
Hamisha barhayot nasl shoirlar.
Haqiqiy shoirning qabri bo'lmaydi,
Yurakka ko'milar asl shoirlar.*

Bugungi kunda Muhammad Yusuf ijodini o'rganish hamda keng targ'ib etish O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti zimmasiga yuklatilgani ko'ngilga shukuh bag'ishlaydi. Zero, mamlakatimiz madaniyati va san'atining ertangi kunini yaratuvchi yoshlar tahsil oladigan mazkur ilm dargohida bu ulkan merosning o'rganilishi nafaqat ilmiybadiiy, balki ulkan ijtimoiy ahamiyatga ham egadir. Muhammad Yusuf badiiy dunyosiga chuqurroq nazar tashlash, uning obraz yaratishdagi betakror mahoratini o'rganib chiqish yosh ijodkorlarni adabiyot va san'atdagi samimiyat, tabiiy tuyg'ular, sof kechinmalar jozibasidan bahramand etadi, beg'uborlikka undaydi, ko'ngilni tozalaydi. Bu hislar bo'lajak san'atkorlarning dastlabki qadamlaridan jismiga jo bo'lishi, ertangi san'atimiz jozibasini oshirib, betakror, samimi yiqofasini yanada takomillashtirishga xizmat qilmog'i muqarrar.

**Oltinoy TOJIBOYEVA,
san'atshunoslik fanlari doktori**

MANNON UYG'UR

Toshkentning Zanjirli mahallasidagi shaharning boobro' boylaridan hisoblangan Majid oqsqoqolning 1987 yilda tug'ilgan uchinchi o'g'liga Mannon deya ism qo'yildi. Bolakay yetti yoshga to'Iganida onasi Ibdotat buvi o'g'lining qo'lidan yetaklab to'g'ridan-to'g'ri madrasaga emas, Toshkentda 1904 yilda ilk bora ziyoli Azimiy tomonidan ochilgan, bepul "Usuli jadid" matabiga olib boradi.

Usuli jadid matabidagi o'qishning to'rtinchi yillarida maktabdosh o'rtoqlari bilan Konkaga osilishib, "Gorodga" (yangi shahar O'rda suvidan kun chiqar tomondag'i chiqadigan ruslar yashaydigan qismi) chiqadigan bo'lishdi. Ayniqsa, "Xiva" teatrida ko'rsatiladigan sinematograf tomoshalari Mannonda o'zgacha taassurot qoldiradi. Avvaliga "dorbozlar" o'ynlariga taqlid qiladigan bo'lsa, endi sinematografdan aks ettirilgan o'ynlarga taqlidan o'zi to'qigan voqealarni ijro eta boshlaydi.

Yangi matabda o'qib mukammal xat-savodini chiqargan Mannonni Shayhontohurdagi Eshonquli dodxoh

kunlarimiz sertashvish bo'lardi, – deb ma'lumot beradi truppa ishtirokchisi Ali Ardonbus, – uyma-uy yurib, tanishbilishlarimiznikidan tomoshaga kerakli kiyim-kechak, rekvizitlarni yig'ib kelar edik".

Teatrda repertuar tanqisligidan habardor bo'lgan davlat idoralari buni bartaraf etish uchun "Zamonaviy pyesalar" yaratish uchun tanlov e'lon qiladi. Lekin hali dramaturg degan tushunchaning o'zi amaliyotga kiritilmagan, pyesa qanday yozilishi to'g'risida yetarli bilimning o'zi ham yo'qligi sababli shoir CHo'lpon teatrda adabiy emakdosh qilib biriktiriladi.

O'z navbatida Uyg'ur "Xo'r-xo'r", "Na qonur, na qondir", "Tursunali va Ballibodi", "Yomon qardosh" kabi asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilib sahnalashtiradi.

1921 yilda "O'lka namuna o'zbek teatri" tashkil topdi. Bu Turkiston jumhuriyatining birinchi markaziy davlat truppassi edi. Yangi truppaning asosiy ijodiy kuchlari "Karl Marks" teatrning yetakchi artistlari tashkil qildi, boshqa

truppaldan ham talantli yoshlar tanlab olindi.

Buxoro halq komissari Fayzulla Xo'jayev taklifiga binoan, 1921 yilda Mannon Uyg'ur Buxoroga safarbar etiladi. U Buxoroga kelishi bilan shahar maktablari oralab kam sonli havaskorlik to'garaklari, maktab ta'limining adabiyot darslarida qatnashadi. Teatr san'ati to'g'risida qiziqarli suhabatlar o'tqazadi. O'zi ijro etgan rollardan ayrim sahnalarini ko'rsatadi.

Nihoyat, bir necha oy o'tkazilgan ko'rik-tanlovlardan xosilasi o'laroq Hikmat Latipov, Lutfulla Nazrullayev, Sa'dixon Tabibullayev va Nabi G'aniyev singari qobiliyatli yoshlarni tanlab olib, teatr ishiga jalb qilindi. Bu teatr 1922 yilda sahnalashtirilgan "Tuhmatchilar jazosi" spektakli bilan ochildi. Shundan so'ng Behbudiyning "Padarkush", "Yo'lbars Olim", "Turkiston tabibi" asarlari sahnalashtiriladi.

Turkiston hukumati 1922 yilning 20 iyunida Maorif xalq komissarligi ta'minotida bo'lgan Eski shaharda yagona o'zbek teatrini tiklash va uni Maorif xalq komissarligi ta'minotida qoldirish to'g'risida maxsus qaror qabul qilindi. Shunga ko'ra, "Turon" truppassi o'rniga "Namuna" deb nomlangan truppassi yana tiklandi va o'z ishini davom ettirdi. Uyg'ur Buxorodan qaytib, 1922 yilda teatrda qizg'in ish boshlab yuboradi.

1923 yilning kuz oylarida Uyg'urni ilg'or maorif xizmatchisi sifatida Moskvada ochilgan "Xalq xo'jalik yutuqlari ko'rgazmasi"ga yuboriladi. Ko'rgazmani tomosha qilib yurgan kezlarining e'tiborini bir e'lon o'ziga jalb qiladi. Unda yozilishicha, Moskvada aktyorlik mahorati maktabi ochilganligi, qiziquvchilar "Aktyorlik maktabi"ga taklif qilingan edi. Bu ish ayni Mannon ko'nglidagi orzu edi. Darhol sayrusayohatni yig'ishtirib, shu kursning rejissyorlik bo'limiga kirib, o'qishni boshlab yuboradi.

Ma'lumki, 1920 yilda amirlik tugatilib, Buxoro xalq Ruspiblikasi e'lon qilinganidan so'ng Buxoro xalq komissari Fayzulla Xo'jayev tashabbusi bilan Moskvada Buxoro xalq maorif uyi ochiladi. Mannon Uyg'ur ayni shu Maorif xalq uyiga Moskvada turkistonlik o'zbeklarni teatr sohasi bo'yicha o'qitish uchun bir studiya tashkil etish to'g'risidagi taklif bilan murojaat qiladi. Boshqa yurtlardan teatr sohasi bo'yicha o'nlab talabalar o'qitilayotgan bir vaqtda, Turkistondan bir o'zi, bu ham bo'lsa o'z tashabbusi bilan bu yerga kelib bilim orttirayotgani, lekin bir o'zi bilan O'zbekistonda teatr ishini butunlay o'nglab bo'imasligini tushuntirishga harakat qiladi.

1923 yil kuzida RSFSR maorif xalq komissari A.V.Lunacharskiy qabuliga kirib, ahvolni tushuntiradi. Fayzulla Xo'jayevning bevosita say-harakati bilan Moskvadagi Spiridonova ko'chasida joylashgan "Xalq maorif uyi"da yuz o'quvchiga mo'ljallangan "Teatr studiyasi" tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Studiyada o'qitish ishlari 1924 yilning kuz oylaridan boshlangan bo'lib, bu ishga ham M.Uyg'ur bosh-qosh bo'ladi. O'quvchilarni tanlash uchun Farg'ona muzofotiga Ishoq qori Karimov, Buxoroga Fatxulla Umarov yuboriladi.

Toshkentdan Abror Hidoyatov, Yetim Bobojonov, Muzaffar Muhammedov, 14 yoshlik Sora Eshonto'rayeva, Tursunoy Saidazimova, 13 yoshlardagi Zamira Hidoyatova ham uydagilaridan yashirinchalik paroji yopingan holda Moskvaga yetib boradi. Andijondan Ishoq qori Karimov, Qo'qondan Hojisiddiq Islomov, Buxorodan Lutfulla Nazrullayev, Sa'dixon Tabibullayev, Sharif Qayumov, Hikmat Latipov, Nabi G'aniyev, G'ulom Isomov, Ne'mat Rahmatov, Xojoqul Rahmatillayevlar Moskvaga borishga rozi bo'ladilar.

O'zbek yoshlarini o'qitish uchun Vaxtangov studiyasining binosi tanlab olinadi. Birinchi dars boshlangan chog'da studiya ustaxonasida 24 kishi o'tirardi. Studiyachilarining moddiy sharoitlari ta'minoti bilan doimiy shug'ullanish uchun o'sha davrda ma'rifatchi va maorif ishlari o'zining tashkilotchiligi bilan diqqatga tushgan Shokirjon Rahimi - studiya direktori, adabiy emakdosh va tarjimon - Abdulhamid CHo'lpon, Badiiy rahbar - Mannon Uyg'ur tayinlanadilar.

Moskva studiyasidagi mashg'ulotlar ikki shaklda; nazariy va amaliy shaklda olib boriladi. O'qishing birinchi yilda asosan rus tilini o'rganish, "Aktyorlik mahorati" bo'yicha mashq va etyudlar ustida ish olib borilgan bo'lsa, spektakllar ustida ishlash 1926 yildan boshlanadi.

Vaxtangov rejissura maktabi qoidalari aktyorlardan tashqi va ichki ifoda vositalari yuksak darajadagi qobiliyatni talab qilishi, ijodiy tafakkurga erkinlik berish, musiqa, sahnaviy marom va muhitni his qilish, so'zlarni aniq talaffuz qilish, fikrlar ravon, ta'sirli chiqishi uchun har bir so'zning ostida ma'lum aniq bir harakat bo'lishi, aktyor ijrosi zavqli, ehtirosli bo'lishi, sahnadagi har bir katta-kichik rol ta'sirli, ifodali, ma'lum bir shaklga solingan bo'lishi talab qilingan.

Shunday qilib o'sha 1926 yil ilk bora "Malikai Turandot" spektakli ustida ish boshlanadi.

Asarni o'zbek tiliga CHo'lpon tarjima qiladi.

Navbatdagi spektakl Gogolning "Revizor" spektakli bo'ldi. Bu asarni ham CHo'lpon tarjima qiladi.

Mazkur pyesa ustida ishlash jarayonida ijodiy mashg'ulotlar hamda ularni amaliyotda qo'llash nazarda tutilgan edi.

Studiyachilar 1926 yilning yozgi ta'til vaqtida O'zbekistonning o'sha vaqtdagi poytaxti Samarqand shahriga kelib o'zlar o'tgan yillar davomida erishgan yutuqlarining hosili sifatida, mazkur ikki spektakl hamda "Yana uylanaman" pantomima spektakllarini namoyish etadilar.

Bir so'z bilan aytganda, 1927 yil O'zbek Milliy teatri ijodiy parvozining bir necha pog'ona yuqoriga ko'tarilish yili sifatida tarix sahifalarida muhranib qoladi.

O'zbek drama truppasining o'ttizinchi yillargacha bo'lgan eng katta yutuqlaridan biri bu Xurshidning "Alisher Navoiy" dostoni asosida yozilgan "Farhod va Shirin" musiqali dramasi bo'ldi.

O'zbek teatrining o'ziga xos taraqqiyot yo'lini, ijodiy yo'nalishini, milliy shaklini aniq belgilab olishda ko'pchilik tomoshabinlarning fikr-mulohazalari,

talab-ehtiyojlari, istaklarini o'rganish va bilish sahna ahli, xususan, Mannon Uyg'ur uchun zarur edi. Shu bois tomoshabinlarni teatrga ko'plab jalb qilish, ularning ehtiyojlarini sinchiklab o'rganish maqsadida teatrning o'zida bir qator ishlarni amalga oshiradilar.

Teatr olamida katta-shov-shuvga sabab bo'lgan, Shekspirning "Hamlet" pyesasi ustidagi tayyorgarlik ishlari 1933 yilda boshlanadi.

Xuddi shu yili Hamza nomidagi drama teatriga "Akademik teatr" faxriy unvoni berildi. Ma'suma Qoriyeva, Mariya Kuznetsova, Sora Eshonto'rayeva, Yetim Bobojonov, Abror Hidoyatov, Mirshohid Miroqilovga "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist", Mannon Majidov Uyg'urga "O'zbekiston xalq artisti" unvoni beriladi.

Men, - deb yozadi Mannon Uyg'ur o'z esdaliklarida, - Moskvada MXAT (Moskva Badiiy akademik teatri) ajoyib spektakl "Gamlet"ni ko'rgach, uni o'zimizda ham qo'yamiz, Gamlet rolini Abror Hidoyatovga keldim. Biroq men Shekspir asarining ijrochilaridan yuksak madaniyat va katta mahorat talab qilishini tushunardim, shuning uchun biz "Gamlet"ni faqat o'n yildan so'nggina sahnalashtirishga kirishdik".

Shubha yo'qki, Uyg'ur Shekspir asarini sahnalashtirishda milliy dramaturgiyamizning kelgusi rivojlanishini ham nazarda tutgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, "Hamlet" premyerasi o'tgandan keyin Uyg'ur "Biz endi dramaturlarga ham talabni katta qo'yishni o'rgandik. O'zbek tomoshabinini jahon dramaturgiyasi durdonasi bilan bahramand etishni yuksak farzdebbilamiz, ayni vaqtida ular Shekspir dahosini qadrlaydi, uning beqiyos mahoratini e'zozlaydi", - degan edi.

Buyuk Shekspirning "Hamlet" asarini CHo'lpon tarjima qilgan. U Moskvada davolanih qaytganidan so'ng teatrda Mannon Uyg'ur yonidan nari ketmay, tarjimani takomillashtirish ustida tinmay ishladi. Pyesadagi har bir monologni tarjima qilar ekan, uning har bir satrini bir necha variantda yozib kelar va Og'a boshliq ijrochilar bilan muhokama qilinardi. Eng jarangdor, tomoshabinga tez yotib boradigan so'zlargina olib qolinardi.

CHO'lpon ham o'z navbatida chaynalgan, jarangsiz, yuki yengil, hissiz so'zlardan qochar, aktyorlarga takror-takror o'qitib ko'rар, Abror Hidoyatovga ma'qul bo'lgan matnni oqqa ko'chirardi. Har kuni mana shunday og'ir mehnat qilingani uchun asarning mohiyat-maqsadi artistlarning vujudiga singib ketdi. Matn artistlarning o'z mulki bo'lib qoldi.

1935 yilning 11 fevral kuni O'zbek teatri tarixida yangi sahifa ochildi. Shu kuni Hamza nomidagi O'zbek akademik drama teatrida Shekspirning "Hamlet" spektakli namoyish etildi. (Jamoatchilik ko'rigining ertasigayoq hali e'lonlar chiqmasdan turib "Hamlet"ning dastlabki o'n spektakliga chiptalar sotib bo'lingan edi). Shu munosabat bilan "Pravda Vostoka" gazetasi o'zining 1935 yil 21 fevral sonida quyidagilarni yozgan edi:

"Tomoshabinlar spektaklning ko'pchilik sahnalarini gulduros qarsaklar bilan qarshi oladilar. Hamlet (Abror Hidoyatov) bilan postanovkachi Uyg'ur

va rejissyor Bobo Xo'jayevlar qayta-qayta sahnaga chaqirilaverdi. Tomosha zali har kuni paranji yopingan kampirlar, salsa o'ragan oppoq soqollni mo'ysafidlar, yoshlar, o'zbek ziyolilari bilan liq to'la. Teatr eshigi oldida "Hamlet"ga tushmoqchi bo'lganlarning son-sanog'i yo'q. Ular orasida qiyomiga yetkazib qo'yilgan spektaklni yana bir bor ko'rish niyatida yurganlar ham oz emas. Teatr foyesida "Hamlet"ning yuksak did bilan nashr etilgan o'zbekcha tarjimasi (Abdulhamid CHo'lpon tarjimasi) qo'l-qiga tegmay sotilib, antrakt paytlari shu yerning o'zidayoq havas bilan o'qiladi".

Qariyb 24 yillik umrini, bilimi va sog'lig'ini teatr san'ati rivojiga bag'ishlagan Mannon Uyg'ur 1938 yilda ana shu tuzum oqibatida tazyiqqa uchradi. CHo'lpon, A.Qodiriy, Fitrat, Xurshid, G'ulom Zafariy, Ziyo Saidlarning "hamfikri" sifatida, o'zi tashkil etgan teatrdan haydab solishadi.

To'qqiz oy, taqa-taq eshlarni qoqib adolat talabida bo'ldi. Idorama -idora adolat tilab sarson bo'ldi. Tirikchilik tashvishida, Moskvadan adolat qidirdi. Topilmadi. Ammo san'at san'atkorni qidirib topdi. Hamza nomidagi o'zbek akademik drama teatri Mannon Uyg'ursiz huvillab qoldi. Moskvadan yordamga yuborilgan "og'alarimiz" haqiqiy "Og'a"ning o'rnini to'ldira olmadidi. Teatr jamoasi faqat Uyg'urni qo'msadi. Uyg'urni so'radi. Uyg'urni talab qildi.

1941 yilda Uyg'ur yana o'zining buyukligiga yarasha bo'yldi. Shekspirning "Otello"si na faqat o'zbek tomoshabinlari hatto moskvalik shekspirshunoslarining ham qalbini titratdi. Morozovdek taniqli shekspirshunos olim, Uyg'urning rejissyorlik, Abror Hidoyatovning aktyorlik mahoratiga tan berdi. Bu haqda "Zvezda Vostoka" jurnalida "Hamlet" va "Otello" kabi Shekspirning murakkab pyesalari ustidagi Hamza teatrining ijodiy ishlari, o'zbek teatr san'atining eng gullab-yashnaganligidan dalolat beradi, - deb yozgan edi".

M.Uyg'ur 1941-1945 yillarda "Alisher Navoiy" spektaklini sahnalashtiradi. Ammo har ehtimolga qarshi Moskvadan chaqirilgan Ladiginni ham rejissyor sifatida ro'yxatga kiritib qo'yadi. Shu yillari H.Olimjonning "Muqanna", M. Shayxzodanining "Jaloliddin", Muqimiy nomidagi musiqali teatrda S. Abdullaning "Muqimiy" spektakllarini sahnalashtirish orqali o'zining tom ma'nodagi o'zbek milliy teatrining "Og'a"si ekanligini ijodiy ishlari bilan isbotlaydi.

U 1950 yildan boshlab Toshkent teatr va rassomlik institutida "Rejissura" va "Aktyorlik mahorati" fanlaridan dars berar ekan, jonajon teatrining ijodiy hayoti bilan muntazam munosabatda bo'ladi.

Biroq, teatrning tashkilotchilik, ijodiy, yosh shogirdlarni tayyorlash ishlari, yaqin safdoshlardan bevaqt ajralish, o'zi tashkil etgan teatridan haydalishi rejissyor asablarini egovlab, ruhiyati va sog'lig'iga jiddiy putur yetkazadi.

Mannon Uyg'ur og'ir betoblikdan so'ng, 1955 yil, 16 oktabr kuni 58 yoshida Toshkentda olamdan o'tdi.

**Jo'ra MAHMUD,
O'zbekiston san'at arbobi**

“JANNATGA YO‘L” HAQIDA

Ziyolilar atamasini hayotimizda ko‘p eshitganmiz ammo ba‘zi insonlar bu so‘zni asl mohiyatini anglamaydilar. Ular aslida qanday insonlar? Ziyolilar – nur tarqatuvchilar, ular o‘zlarining xatti-harakatlari, faoliyatlar bilan jamiyatni nurlantiruvchi, ma’naviyijitmoiy barqarorlikni ta’minlovchilar hisoblanadi. Shu sababli, yurtimizda kitob bilan oshno bo‘lgan, kitobni suygan, kitob yozgan, kitobni muqaddas bilib uin ko‘zqorachig‘idek asraganlarni ziysi deb atashadi.

Kitob insonni yerdan ko‘kka ko‘taruvchi, uning ma’naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuch hisoblanadi. U insoniyatning tarixiy xotirasi, barchamizni o‘z ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy zaminimizni mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko‘rsatib borishga qodir mash’ala hisoblanadi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari «Kitob – beminnat ustoz, bilim va ma’naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai», deya ta’kidlagan bo‘lsa, sohibqiron bobomiz Amir Temur «Kitob – barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idroknning, ilmu donishning asosidir. Hayotni o‘rgatuvchi murabbiydir», deya uqtirgan.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan mamlakatimizda kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini yaxshilash to‘g‘risida ko‘plab amaliy ishlardan qilinmoqda. Jumladan, «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida»

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori qabul qilindi. Qarorga ko‘ra kitob mahsulotlari bo‘yicha davlat buyurtmasining asosiy yo‘nalishlarini shakllantirish, adabiy-badiiy, o‘quv-uslubiy, ilmiy-nazariy, ilmiy-ommabop va ko‘rgazmali adapbiyotlarni chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, ixtisoslashtirilgan kitob do‘konlari faoliyatini rivojlantirish belgilandi. Mamlakatimizda har bir insonning kitob mutolaasiga bo‘lgan qiziqishini oshirish va unda mutolaa madaniyatini shakllantirish muhim masalalardan hisoblanadi.

O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekiston qahramoni Abdulla Oripovning “Jannatga yo‘l” asari meni hayotimda o‘chmaz iz qoldirdi desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Men ushbu asar haqida O‘zbekiston Respublikasi san‘at arbobi, “El-yurt hurmati” ordeni sohibi Isoq To‘rayevdan qiziq bir ma’lumotni eshitdim. Ushbu asar spektakl ko‘rinishida Qashqadaryo Mulla To‘ychi Toshmuhammedov nomidagi musiqali drama teatrda Abdurahmon Abdunazarov tomonidan dramatik yo‘lda sahnalashtirilganda, spektaklni tomosha qilish uchun shaxsan O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashrif buyurgan ekanlar. Islom Karimov “ushbu spektaklni hamma oila a’zolari bilan ko‘rishi kerak ekan, mana shu spektaklda ko‘tarilgan eng inson uchun muqaddas tuyg‘ulardan biri, bu otana oldidagi farzandning burchi shu spektaklda juda bir yorqin oshib berilgan ekan” deb ta’kidlagan ekanlar.

“Jannatga yo‘l” deb nomlangan spektaklni zamirida insoniyatni hayotda

qilishi mumkin bo‘lgan hamma xatolari, barcha to‘g‘ri ishlari ko‘rsatilgan. Ushbu spektaklda rejissyor tomoshabinga tarozibon roli orqali yetkazmoqchi bo‘lganlari quyidagilardan iborat: insonni bu olamda qilib ketgan ezgu amallari bilan yomonliklari va yaxshiliklari tarozida o‘lchanishi, qanday savob ishlardan qildi va qanday nomaqbul ishlardan umrini o‘tkazdi. Rahmatli Abdulla Oripov ham ushbu spektaklni Islom Karimov bilan birga ko‘rgan ekanlar. Spektakl tugagach insonlar uchun mana shunday noyob va qimmatli asarni yozganligi uchun Birinchi Prezidentimiz Abdulla Oripovni bag‘rlariga bosib minnatdorchilik bildirganlar.

Ushbu noyob asar kundalik hayot voqealarini aks ettiradi. Ushbu asarda ko‘tarilgan mavzular hanuzgacha dolzarb, shu tufayli asarni o‘qiydigan kitobxonni va spektaklni tomosha qiladigan tomoshabinni chuqr o‘yga to‘ldiradi.

Abdulla Oripov «Jannatga yo‘l» asarida insonparvarlik g‘oyalarini ilgari surdi. Odamlarga yaxshilik qilish, faqirning og‘irini yengillatish, adolatsizlikka qarshi fidoylarcha kurashish natijasida qo‘lga kiritilgan savoblargina Tarozibon talablariga javob berishi mumkin. Lekin savob tasodify ishning natijasi bo‘imasligi kerak, u vijdoniy vazifaning amalga oshuvি tarzida doimiy ro‘y bergen taqdirdagina o‘z mohiyatini ifoda eta oladi. Shoир talqinicha, yer yuzida iymonsizlik, insofsizlik, beburdlik va vijdonsizlikdan yomonroq narsa yo‘q. Zero, barcha qabohatlarni urchituvchi kuch shularda yashirin.

Asarda chin do‘stlik haqida ham yaxshi fikrlar keltirilgan. Donolarning aytishicha, uch guruh kishilar bilan do‘stlik yo‘lini tutish maqsadga muvofiqdir. Birinchisi, ilm ahli bo‘lib, ular o‘z hayotlarini ilmu odob bilan o‘tkazgan va hayotning barcha achchiq-chuchugini tortgan bo‘ladilar. Ikkinchisi, baxtiyor, tabiatli saodatmand kishilar, ular o‘z do‘stlarining ayblarini odamlardan yashiradilar va hech qachon oshkor qilmaydilar. Xilvatda do‘stdan sodir bo‘lgan xatolarni yuzlariga aytib beradilar va ulardan hech bir nasihatlarini ayamaydilar. Uchinchisi, beg‘araz va betama’ kishilar bo‘lib, ularning do‘stliklari haqiqiy, biror foyda topish evaziga qurilmagan bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripovning “Jannatga yo‘l” asari kitobxon uchun juda katta ilm va ma’rifat manbaidir. O‘ylaymanki, xattiharakatlari sarhisobini qilib borish uchun har bir odamning qalbida qilayotgan ishlardan o‘lchovchi tarozibon bo‘lishi kerak. Bugungi notinch va murakkab zamonda yurtimizdagini tinchlik va barqarorlikni saqlash, xalq faravonligini ta’minalash juda katta mehnat va mas’uliyatni talab qiladi. Buning uchun har bir yurt farzandi o‘zini shu yurt taqdiriga daxldor ekanligini qalbdan xis qilgan holda o‘zining jamiyatdagi vazifalarini to‘la ado qilmoqliklari lozim. Zero, Vatanga xizmat shu yurt farzandiman degan har bir o‘g‘il - qiz uchun eng oliy saodatdir.

**Kamoliddin UMAROV,
O‘zDSMI “Madaniyatshunoslik”
mutaxassisligi 1-bosqich magistrant**

YOSHLIK KUYCHISI

filmini suratga oladi. Ijodkorning filmi muvaffaqiyatlari chiqadi.

Elyor Eshmuhammedovga haqiqiy muvaffaqiyatni 1966 yilda ekranga chiqqan “Nafosat” filmi olib keldi. “Nafosat” filmi yoshlik va bu davrda yoshlar qalbida kechadigan tuyg‘ular haqida. Melodrama janridagi ushbu film uch novelladan iborat bo‘lib, novellalar mavzu va g‘oya jihatidan bir-biriga bog‘liq. Filmda uch yosh: Sanjar, Lena va Ma’muralarning kechmishlari va yoshlik tuyg‘ulari aks ettirilgan. Bolalik bilan xayrashib, yoshlik davriga endigina qadam qo‘yan yoshlar qalbida sevgi degan tuyg‘u tug‘iladi. Lekin bu tuyg‘u rivoj topmay, aksincha, film qahramonlari qalbida quvonch va qayg‘u hosil qiladi. Sanjar, Lena, Ma’mura qalblarida nima kechayotganliklarini tushunmaydilar. Sevgi tuyg‘usini qanday tuyg‘u ekanligini anglay olishmaydi. Qahramonlarning bu tuyg‘usi ya’ni sevgisi shunchalik nozikki, bu muhabbat hech bir qalbga ozor bermaydi. Rejissyor yoshlar qalbida kechadigan tuyg‘ularni shunchalik nozik ifodalab bera olganki, buni ko‘rgan, his qilgan har bir tomoshabin to‘lqinlanib ketadi. Filmning yana bir yutug‘i - rejissyor filmning har bir personajiga mos xarakter topa olganidadir.

Film Elyor Eshmuhammedovga rejissyorlik ishi uchun ko‘plab mukofotlarni keltirdi. Jumladan, film Lokarnoda o‘tkazilgan XX xalqaro kinofestivalda maxsus sovringa, Frank Furt-Mayneda o‘tkazilgan kinofestivalda rejissyorlik ishi uchun Kumush sovringa sazovor deb topildi. Shuningdek, “Nafosat” filmi YUNESKO Fondiga kiritilgan o‘zbek filmlari qatoridan joy oldi.

Elyor Eshmuhammedov 1965 yildan 1989 yilgacha “O‘zbekfilm” kinostudiyasidagi faoliyati mobaynida qator filmlar suratga oldi. 1969 yilda suratga olingan “Sevishganlar” filmi Minskda o‘tkazilgan IV Ittifoq kinofestivalida maxsus sovringa loyiq deb topildi. Elyor Eshmuhammedov bu ikki muvaffaqiyatlari filmidan so‘ng barakali ijod qiladi. Qator yillarda “Velosiped poygasi” (1970, xujjatli), “Uchrashuv va Ayriliqlar” (1973), “Qushlar bizning umidimiz” (1976), “Toshkentda anhor bor” (1977, xujjatli), “Eh, bizning yillar!” (1980), “Dahoning yoshligi” (1982), “Alvido yashil yoz...” (1985), “Shok” (1989 ikki seriyali), “Navro‘z” (1997, xujjatli, qisqa metrajli), “Vorislar” (2001), “Yo‘ldagi farishta” (2003), “Sevishganlar 2” (2004), “Vorislar 2” (2005), “Kelinchak”

(2006), “Bolali yolg‘iz ayol” (2007), “Sen haqingda” (2007), “Nurafshonim mening” (2007), “Uchinchi osmon” (2007), “Asrdan ko‘proq” (2009), “Katya: Harbiy tarix” (2009), “MUR” (2011), “Mix” (2014) nomli filmlar suratga oladi. Rejissyor ko‘p yillik izlanishlari natijasida 1969 yilda O‘zbekiston SSR da xizmat ko‘rsatgan artist, 1983 yilda O‘zbekiston SSR xalq artisti unvonlariga sazovor bo‘lgan. Bugungi kunda rejissyor Rossiya Federatsiyasida xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi.

Shoir she’rlarida nimani kuylasa, xalq shuni tinglaydi, Xalq shoirning tuyg‘ularini o‘ziniki qilib oladi, qalbiga, xotirasiga muhraydi. Rejissyor Elyor Eshmuhammedov o‘zining filmlarida ko‘proq yoshlik va undagi go‘zal tuyg‘ularni aks ettirishga va tomoshabinlar qalbidan joy olishga intildi. U she’rlarda emas, filmlarida yoshlikni kuyladi, odamlar qalbiga joyladi. Bu bilan esa rejissorning o‘zi ham tomoshabinlar xotirasida, qalbida yoshlik kuychisi bo‘lib umrbod esda qoladi.

Shahnoza TUYUNOVA

Muassis:
O‘zbekiston davlat san‘at va
madaniyat instituti

Bosh muharrir:

Tahrir hay’ati:
Go‘zal XOLIQULOVA
Ma’reufion YULDASHEV
O‘tkur ISLAMOV
Antonino KOSHELEVA
Rashid USNATOV
Jumagul NISHONOVA
Mas‘ul kotib:
Alimurod TOJIYEV
Nafisa RAIMQULOVA

Tahririyat manzili: 100025 Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Yalang‘och mavzesi, 127 A uy.

Telefon: (0-371) 230-28-13.

www.dsni.uz; nashriyot@dsni.uz

Gazeta har oyning oxirgi haftasida «NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.

Manzil: O‘rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, Mash‘al mahallasi, Markaz – 1.

Sahifalovchi:
Shahriyor IBRAGIMOV

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo‘limida tayyorlandi.
O‘lchami – A3, hajmi 2 bosma taboq.

Nusxasi – 500 dona. Narxi kelishilgan narxda.

Chop etishga 30.03.2020 yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqами bilan 2012-yil 19-dekabrda ro‘yxatga olingan.